

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

Tilshunoslik kafedrası

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'limi yo'nalishi

3-bosqich "B" guruh talabasi

SITORAXON ABDURAHMONOVANING tayyorlagan

KURS ISHI

MAVZU: ERGASHTIRUVCHI BOG'LOVCHI VA YUKLAMALAR

ILMIY RAHBAR: H.Zakirova

Andijon - 2015

MUNDARIJA:

- I. Kirish: Ergashtiruvchi bog'lovchi va yuklamalar haqida ma'lumot.
- II. Asosiy qism:
 1. Yuklama vazifasida keluvchi ergashtiruvchi bog'lovchilar.
 2. Yuklama vazifasida keluvchi bog'lovchilar.
- III. Xulosa.

KIRISH

Davr va fanlarning taraqqiyoti tadqiqotchilar zimmasiga har doim yangi mas'ulyatni yuklaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda erishilgan milliy istiqlol va jamiyatda yuz bergan ma'naviy – mafkuraviy o'zgarishlar fanlar, xususan, o'zbek tilshunosligi kabi fanlar oldiga muayyan talablarni qo'ydi. Ma'lumki, tilda, chunonchi, uning grammatik qurilishida ham, millat ruhiyati aks etadi. Prezidentimiz “Ona tili – millatning ruhidir” iborasini bejiz ta'kidlamagan edilar. Shunday ekan, bugungi kurs ishimiz orqali ham o'zimizning ona tilimiz, uning grammatik qurilishi, ya'ni yordamchi so'zlar haqida fikr – mulohazalarimiz bilan yondashishni niyat qildik. Yordamchi so'zlarning o'rganinish tarixi shuni ko'rsatadiki, yordamchi so'zlar sirasi masalasi ham oxiriga yetmagan. Ayrim birliklarning qaysi guruhga kirishi munozarali bo'lsa (-ki, -kim, -gina), ayrimlarini muayyan guruhga hamma beistisno kiritsa-da, ba'zi vazifalari o'z guruhi umumiy ma'nosiga mos kelmay qoladi. Biz ham mavzuyimiz orqali bu muommolarga to'xtalib o'tamiz. Kurs ishimizning mavzusi **“Ergashtiruvchi bog'lovchi va yuklamalar”** bo'lib, biz bu mavzu orqali ergashtiruvchi bog'lovchilarning yuklama o'rnida kelishi, yuklamalarni esa bog'lovchi, jumladan, ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasida kelishini tahlil orqali tushuntirib boramiz. Undan avval, ergashtiruvchi bog'lovchi va yuklama haqida, ularni kimlar o'rganib, qanday fikrlar bildirganliklarini qisqacha izohlab o'tsak.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar, asosan, qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatiladi. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ko'p ishlatiladigan ergashtiruvchi bog'lovchilar *chunki, shuning uchun, agar, basharti, garchi, go'yo, go'yoki, ya'ni, -ki, (-kim)* lardir. Bu bog'lovchilar “O'zbek tili grammatikasi” da qo'shma gap tarkibidagi gaplar orasidagi turli munosabatlarni bildirishiga ko'ra quydagi guruhlarga ajratiladi:

1. Aniqlov bog'lovchilari. *Ya'ni, -ki (-kim)* aniqlov bog'lovchilari ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatilib, bosh gapda ifodalangan fikrni

aniqlab, izohlab ko'rsatadi: *Hamida bonu to'pni darvozaga shunday chapdastlik bilan urib kiritdiki, buni ko'rgan Xonzoda begim:*

— Balli, sherqiz! — deb qarsak chaldi. (*Primqul Qodirov*).

-ki aniqlov bog'lovchisi ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirib berish uchun ham ishlatiladi: *O'qituvchilar yig'ilishida maktab direktori aytdiki, - o'quvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan o'qitilishi kerak, - deb.*

2.Sabab bog'lovchilari. Sabab bog'lovchilari chunki, shuning uchun ergash gaplarni bosh gapga bog'lab, sabab - natija ma'nolarini ifodalaydilar:*So'ngra Zebilar oilasi singari bu oilada ham erkak bola yo'q, shu uchun qo'shni va qarindosh bo'lgan bu bola hamma vaqt shu hovlida, u hovlidan ko'ra ko'proq bu hovlining dastyori va yugurdagi (Cho'lpon).*

3.Shart bog'lovchilari. Shart bog'lovchilari agar, agarda, basharti, mabodo, garchi shart va to'siqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatidagi shartni, shu bilan birga to'siqsizlik ma'nolarini anglatadi:*Agarda uning yonida usta Olim bo'lmaganda edi, ehtimol, u qay vaqtlargacha serryib qolar edi (A. Qodiriy).*

4.Chog'ishtiruv bog'lovchilari. Chog'istiruv bog'lovchilari go'yo, go'yoki bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko'rsatadi, shuningdek, ayrim voqea – hodisalarni, ayrim otlarni bir – biriga solishtirish, o'xshatish uchun ham ishlatiladi:*U Otabekka yan kulib qarab turar edi – da, go'yoki shu kulish bilan o'z sehrining kuchi bilan faxrlanar edi (A. Qodiriy).*

Ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'no turlari tilshunoslar R.R. Sayfullayeva va B. Mengliyev da ham xuddi mana shu tarzda beriladi.

Yuklama. Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no jilosi (ottenkasi) berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar yuklamalardir. R.R. Sayfullayeva bu haqida quydagicha fikrlarni bildiradi: “Yuklamaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z yoki gapga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish – chegaralash, o'xshatish kabi qo'shimcha ma'no beradi va funksional “bog'lash” belgisiga

nisbatan beqaror, o'zgaruvchan sanaladi, ya'ni "bog'lash" belgisi unda bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin".Shu bilan birgalikda yuklama yuqoridagi belgisigako'ra ko'makchi va bog'lovchidan farq qilishini aytadi.

"O'zbek tili grammatikasi" da gapga yoki ayrim so'zlarga beradigan qo'shimcha ma'nolariga ko'ra yuklamalarni quydagicha guruhlash mumkin: 1) so'roq va taajjub yuklamalari; 2) kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari; 3) ayiruv va chegaralov yuklamalar; 4) aniqlov yuklamasi; 5) gumon yuklamasi; 6) inkor yuklamasi.

R.R. Sayfullayeva yuklamalarni 6 ga bo'lgan bo'lsa ham, lekin kuchaytiruv va ta'kid yuklamalarini alohidabo'ladi, gumon yuklamasini esa kiritmaydi. Aniqlov bog'lovchilarini o'xshatish – qiyoslash deb olib, unga *go'yo*, *go'yoki* chog'ishtiruv bog'lovchilarini ham kiritib yuboradi.

Baxtiyor Mengliyev esa yuklamalarni 7 ga bo'ladi. U ham kuchaytiruv va ta'kid yuklamalarini alohida - alohida bo'ladi. Gumon yuklamasi o'z holida qoladi.

YUKLAMA VAZIFASIDA KELUVCHI BOG'LOVCHILAR

“O'zbek tili grammatikasi” da-ki aniqlov bog'lovchisi ot turkumidagi so'zlar bilan kelib, ta'kidlash, uqtirish ma'nolarini anglatishi aytib o'tilgan. Bunday chog'da u bog'lovchi emas, yuklama sanaladi: 1. *Bizning Marg'ilonda bir qiz bor, — dedi, — shundog' ko'hlikki, bu o'rtada uningo'xshashi bo'lmas, deb o'ylayman.* 2. — *Qiziq gaplar so'zlaysiz, — dedi Otabek, taajjubi ortqan edi. — Menga qandog'yomonlik sog'indingiz-ki, sizga ishonchim bitsin?* 3. — *Ko'b yashang, boy aka. Qulingiz ham bu to'g'rida ko'b o'yladim. Xafa bo'lsa nimachorakim, biz shu ishka majbur bo'lg'an bo'lsa.* 4. — *Otabek kabi bir yigitning sog'lig'i har bir aqlli kishi uchun maqsad bo'lsa ham, — dedi taajjub bilan qutidor, — lekin so'zingizning shunisi qiziqdir, bir yigitning sog'lig'i ikkinchi bir kishining ixtiyorida bo'lsin.* 5. *Bu jihat bilan bu ishka rizolig'im bilinsa ham biroq qarshilig'im shundadir, kuyav toshkandlik bo'lg'andan so'ng qizingizni o'zi bilan birga olib ketar va siz bilan meniyolg'iz bolamizdan ayirar...* 6. — *Bobolar: «Dunyoniki miri kam ikki» deganlar, — dedi, — to'g'risi ham shundog': o'zingni yuz yoqg'a ursang ham tiriklikning yana bir boshqa yamog'i chiqib turadir...* 7. *Yaxshikim, dunyoda oshna, og'ayni degan kimsalar bor... Agar shular bo'lmaschi, kishi allaqachon dunyodan chiqib ketadir.* 8. — *Qarorim shundan iboratdir, ertadan boshlab yurtka o'ttuz ikki tangadan soliqsochasiz.* 9. — *Dav yuraging bor ekan, yigit... Hayfki, gunohing bo'yningda, — dedi va chaqirdi:*

— *Jallod!* 10. *Endi uchunchi yildir, xotinsiz yashayman va uylanishni ham o'ylab ko'rmayman.* 11. *Na choraki, yomonlarni sizning havlingiz orqasida rafiqam qasdida bo'lg'anlari paytida uchratishg'a to'g'ri keldi va men bu ishka majbur qoldim.* 12. *Albatta, men ishonamankim, siz manim bu yaxshilig'im uchun minnatdorlik qilarsiz.* 13. — *Ma'qullikka ma'qul, — dedi qushbegi, — ammo gap bu yerdaki, biz aniq ishka belbog'laymizmi?* 14. *Mirzakarimning yozg'anig'a qarag'anda bir muncha yanglishiq undan ham o'tkanko'rinadir va lekin sening*

bolalig'ing oldida uniki holvadir... Yaxshiki, bu aqlsizlig'ingboshqalarning boshiga ko'ringan...

Bunga qarshi A. G'ulomov va M. Asqarovalar quydagicha fikr bildiradilar: "Ergashtiruvchi bog'lovchilar ergash gaplarni ko'pgina turini bosh gapga bog'lash uchun ishlatiladi. Bu bog'lovchilar gapdagi vazifasi jihatidan ma'lum xususiyatlarga ega: ularning ayrimlari tamomila bog'lovchiga aylangan bo'lib, faqat bosh va ergash gaplarni bir – biriga bog'laydi. Bunday yordamchilarga –*ki, chunki, negaki, sababki* kabi so'zlar kiradi va ular sof bog'lovchilar sanaladi".

Ayrim bog'lovchilar o'z tabiati bilan yuklamaga o'xshab ketadi. Bunday yordamchilarga *agar, bordiyu, basharti, mabodo, go'yo, toki, garchi* kabi so'zlar kiradi va ular bog'lovchi yuklamalar deyilishini A. G'ulomov va M. Asqarova ta'kidlab o'tadi. Ko'pincha bu so'zlar bir – biriga sinonimday qo'llansa ham, ularning ishlatilishida ma'lum farqlar bor.

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gapda mazmunan zidlikni kuchaytirib ko'rsatish uchun *garchi (garchand)* so'zlari ishlatiladi: 1. *Garchi bu ikki egachi-singil bir qorindantalashib tushkan bo'lsalar ham, sajiya — xarakterda tanib bo'lmasliq darajada birbirlaridanfarqlik edilar.* 2. *Garchi muddao kun kabi oshkora bo'lgan bo'lsa ham nima uchundir qutidor yanao'zini tag'ofilga solib so'radi:— U kimning qizi emish?* 3. *Hokimlargagarchi to'g'ri bo'lg'anda ham dag'alroq so'z aytish o'limni tilash bilan teng edi.* 4. *Garchi o'zining najoti hali qorong'u ersa-da,qo'rboshini bir sinab ko'rish uchun hamma kuchini ikki ko'ziga yig'dida, unga qaradi.* 5. *Muning qochishi garchi bu shahodatning biraradovat yuzasidan bo'lg'an siyosat ekanini onglatar edi ersa ham men yana hanuzOtabekni kafolatda saqlar edimki, janobi oliydan bu xabar yetdi.* 6. *Binoan alayhi uning o'g'li garchi o'lim jazosig'a sazovorbo'lsa ham, marhamati shahananing jo'shg'a keltirilishi biz navkarlarig'a ham muvofiqko'riladir.* 7. *Garchi Toshkandda ekan chog'imda bu rizoliq yo'lig'abel bog'lang'an bo'lsam ham, endi bu bel bog'lashni butunlay o'rinsiz bo'lg'anig'atushundim...* 8. *Begim, garchi achchig'lansangiz ham aytishka majburman: sizda vijdon, insof,*

rahm, va'da, vafo, yaxshilikni bilish, boring-chi, odamgarchilikdan hech gap yo'q emish. 9. Garchi qiz aytkan nusxanitayyorlash og'ir bo'lsa ham, qandaydir bir kuch ta'sirida haligi qizg'a va'da beribyuboribman. 10. Garchi bekning yuragi hozir bo'lsa ham Marg'ilong'a qarab uchishka tayyor edi.

Go'yo bog'lovchisi mazmunidan o'xshatish yoki chog'ishtirish ma'nolari anglashilgan sodda va qo'shma gaplar tarkibida ishtirok etadi. Sodda gaplardagi vazifasi ko'proq yuklamalarga yaqin bo'lib, u gapda turli gap bo'laklari oldidan kela oladi: 1. *Otasining bu so'zlari go'yo uning istiqboli uchun yaxshi ta'minotlar berar, go'yomajburiyat ostida ota nasihatini quloqqa oladiring'andek bo'yin egib o'lturar edi.* 2. *Bujumla kelasidagi onglashilib bitmagan, lekin bo'lishi aniqq'a o'xshag'an yaramas vatinchsiz bir hayotning go'yo muqaddimasi edi...* 3. *Butun shaharni alg'oq-dalg'oq qilib ko'hliq qiz qidirg'an, nihoyat chiroylilikda tanho, aqllilikda yakto topib, to'ylar, tomoshalar, orzu va havaslar bilan o'g'lig'a «xotin bubo'libdir!» degan iftixor va mag'ruriyat ila taqdim qilg'an suyuqli kelini ustiga go'yoo'chakishkandek bo'lib keladigan Marg'ilon parisiga nima va qanday muomala qilar edi.* 4. *Otabek go'yo tog'ostida qolg'an edi.* 5. — *Men biz xalqning odam bo'lishimizdan tamom umidimni kesib qo'ydim... Esimnitaniq'animgandan beri amal demay, mansab demay faqat shu musulmonlar manfaatliniko'zlab kelib, oyog'ida o'zini qushbegi, mingboshi olg'an uch-to'rtta manfaatparastlardango'yo yosh bola kabi aldandim...* 6. *Kumush go'yo uning bag'rig'a singib ketkan edi.*

Qo'shma gapdagi vazifasiga ko'ra go'yo yordamchisi bog'lovchi – yuklama sanaladi. Chunki u ba'zan –*ganday* formasi orqali birikkan qo'shma gaplarning ergash gap tarkibida kelib, undagi chog'ishtirish yoki o'xshatish ma'nosini kuchaytiradi yoki ta'kidlab ko'rsatadi: 1. *O'zi go'yoki to'yga hozirlang'andek beshik yasab, sarpa tikib yuriydir...* 2. — *Men Toshkandda qutidorlik qilg'anvaqtimda siz taxminan besh-olti yoshliq bola edingiz... Go'yoki, men Toshkandakechagina turg'andek va kechagina sizning havlingizda mehmon bo'lg'andekman...* 3. *Otabek bu takallufka chidalmaydir. Go'yo uchinchi so'roq o'rnig'a «Endi olmas ekansizKumushbibini...» deb majlis buziladiring'andek*

seziladir-da, hamma tovshini qo'yib, barchag'a eshitdirib «Qabul qildik!» deb yuboradir. 4. Qushbегining bu savolidan Kumushbibi qo'rqunch bir ma'noni ongladi. Go'yo «isho'tkan so'ng kelibsan» degandek tushungan edi.

O'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarda o'xshatish ma'nosini kuchliroq, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida go'yo yordamchisi olgan ergash gap bosh gapdan oldin keltiriladi: 1. Go'yo hamma uning siridan voqif bo'lganday, yigit qizarib ketdi. 2. Go'yo quyosh oyni kuzatganidek, O't bo'lib orqangdan kezmoqdaman men.

Bu fikrlarga qarshi borib R.R. Sayfullayeva ayrim so'zning bog'lovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda bog'lovchining miqdori, ularning mohiyati, turi hanuzgacha aniqlangani yo'ligini aytadi. Masalan, chog'ishtiruv bog'lovchisiga go'yo, go'yoki so'zi kiritiladi. Ammo bu so'z gap bo'laklari yoki gaplarni bog'lash uchun emas, balki o'xshatish, qiyoslash ma'noli qurilmalarda shu ma'noni ta'kidlash uchun ishlatiladi, o'xshatish, qiyoslash ma'nosi esa boshqa vosita bilan ifodalanadi: 1. Otasining yo'lakdan kirishi bilan latif ko'kragi kuchlik tin olish ila ko'tarilib tashlandi-da, go'yo Otabek bilan uchrashaturg'andek yuragi o'ynamoqqa boshladi. 2. Bizningfoji'amizning asl omili bo'lg'an Homid esa go'yo manim qo'limda mushuk kabi o'yinbo'lg'an, uni kulib turib, o'ynab turib tilimlagan edim... Yuqoridagi misollarda o'xshatish – qiyoslash –dek qo'shimchasi va kabi so'zi bilan ifodalanayapti, go'yo esa shu ma'noni ta'kidlamoqda.

R.R. Sayfullayevaning bu fikrlariga to'laqonlik qo'shila olmaymiz. Bu haqida A. G'ulomov va M. Asqarovalar go'yo bog'lovchisini faqat o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagina qo'llanmay, boshqa ergashgaplarga ham noaniqlik, taxmin yoki gumon ma'nolarini berib, ularni bosh gapga biriktiruvchi grammatik vositalar bilan birga kelishini ta'kidlab o'tadilar.

To'ldiruvchi yoki hol ergash gapli qo'shma gaplarda bajarilishi gumon tutilgan, noaniq voqeani ifodalovchi ergash gapni bosh gapga bog'lashda –ki bog'lovchisi bilan birga ishtirok etadi: Shundan so'ng qipchoq va o'zbek birga

aralashib ketdiki, go'yo hamma adovatMusulmonqul bilan birga ketkandek bo'lib, ikki xalq bir-biri bilan ko'rishdi.

Go'yo to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap tarkibida kelib, bosh gapdagivoqeani faraz qilish yoki o'xshatish orqali izohlaydi: 1. Uyga borib kechki oshni ham yemadi va otasig'a ham uchrashmadi, go'yo shuyirtqichlar dunyosidan yashiring'andek oq kundayoq to'shagiga yotib, ko'rpasigaburkanib oldi. 2. Otabek dadasining bu keyingi so'ziga qarshi hech narsa demadi, go'yo hamma alaminuyuqoridag'i ikki jumla bilan chiqarib yuborg'andek jimgina somi'lik darajasiga tushdi. 3. Anchagina o'ylab o'lturg'andan keyin ko'ngliga «u meni suysa bo'ldi-da», degangap keldi... O'zining bu hukmiga rozi bo'lmadi, go'yo o'zining suyilishi bir nechaoyliqqag'ina o'xshar, Zaynabning to'lg'an oydek yuzi bu suyilishka shu besh-o'n kunningichidayoq xotima beraturg'andek ko'rinar edi.

Go'yo yordamchisi bog'langan qo'shma gaplar tarkibida ham keladi: 1. Bu keyingi gap bilan Otabek ko'tarilib Hasanliga qaradi va uzoq tin olib yana yergaboqdi – yu, go'yo buning ila «unitish mumkin emas» degan qat'iy so'zni aytgan edi.

Xuddi yordamchisi ham go'yo so'zi kabi voqea – hodisalarning yuzaga kelishiga biro z ishonchsizlik, gumon bilan qarash ma'nolarini bildiradi. Bu so'z ishtirok etgan qismlarning kesimlari ko'pincha –ganday formasida bo'ladi: Xuddi yelkasidan birov turtganday, u birdan cho'chib tushdi (As. M.).

Yuqorida biz R.R. Sayfullayevaning go'yo yordamchisi haqidagi qarashlarini ko'rib chiqdik. Balki yordamchisi haqida ham shu fikrlarni beradi. Balki qo'llanishidagi ba'zi xususiyatiga ko'ra, zidlov bog'lovchisidan farq qiladi. Zidlov bog'lovchisi ko'pincha qo'shma gap qismlarini bog'laydi, balki yordamchisi bunday vazifani bajarmaydi: Havo bulut bo'ldi, lekin (ammo, biroq) yomg'ir yog'madi. Bu misolda zidlov bog'lovchisi o'rnida balki so'zini qo'llab bo'lmaydi. Balki so'zi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gapda gumon, qarama – qarshilik ma'nosini ta'kidlash uchun qo'llanadi: 1. Bu yaxshi ko'rishim kuyavingizning dadasi bo'lg'ani uchun emas, balki uning nur ichiga

cho'milg'andek bo'lib ko'ringan siymosini, oyim deb xitob qilg'andagi muloyim, beozor va muassir so'zini yaxshi ko'raman. 2. Uning bu tahdidi ikkimizga emas, balki bittamizgagina xos edi. 3. Kumushning yaqinlarig'ina emas, balki foji'adan xabardor bo'lg'an shaharning katta-kichigi Zaynabka beriladigan jazoni erta-kech kutmakda edilar. 4. Uylanishdagi ixtiyorimiz, — dedi Rahmat, — ota-onalarimizda bo'lg'anliqdan, oladig'an kelinlari o'g'illarig'a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o'zlariga yoqsa bas. 5. Otabekning bu javobidan yolg'iz Akram hojigina emas balki, majlisning boshqaa'zolari ham ajablandilar. 6. — Bundan o'n besh kunlar ilgari biz bir toshkandlik savdogar yigitni mehmon qilg'anedik, balki esingdadir? 7. Otamning Azizbekka yaqin turishi qipchoqdushmani, qora chopon tarafdori bo'lg'anidan emas, balki boyag'i maslakka bir xizmatqilmoq uchundir. O'z – o'zidan anglashiladiki, - deydi Sayfullayeva R.R. – balki sof bog'lovchi bo'la olmaydi, bog'lovchi funksiyasini bajarayotgan yuklama sirasidan joy oladi.

Na-na yordamchisi teng bog'lovchining bir turi sifatida inkor bog'lovchisi sanalib kelgan. Tilshunos G'. Abdurahmonov uni inkor bog'lovchisi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga egaligini ham ko'rsatadi. Haqiqatdan ham, bu yordamchi ham bog'lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog'lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo'laklarga inkor ma'nosini berib, ularni bog'laydi:1. Ammo mendan so'rasang, Marg'ilondag'i naqudamiz va na kelinimizni hech bir vaj bilan kamsita olmayman, balki bizga qudabo'lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli o'g'lim, deyman. 2. Hindilarning ham hannosi: bas, hannosining sihrini namusulmon domlasi qaytarsin-u, na juhud. 3. Otabek na Yusufbek hojig'a, na O'zbekoyimg'a va na Hasanaliga Marg'ilondan tez qaytib kelish sababini aytmagan, Marg'ilon bilan uzil-kesil aloqasi uzilganligini churq etib so'zlamagan, so'ralmag'an so'zga javobberilmas qabilidan jim-jit alamini ichkulukdan olibg'ina yurgan edi. Bu yordamchi so'z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma'nosini ko'rsatadi:Men bu iblisonaaldovga uchib, bu to'g'rida na senga va na

Normuhammad qushbegiga og'iz ochmadimva ularning Qo'qong'a fотиha uchun qo'zg'alishlaridan hech bir shubhalanmadim... Eh,shaytonlar!

“O'zbek tili grammatikasi” da *axir, hattoki, nahotki* so'zlari ham kuchaytiruv va ta'kid yuklamasi bo'lib kelishi aytiladi:1. — *Nega axir meni xabardor qilmaysiz?* 2. — *Kelmaganlaringizda Otabekni endi sira ham yubormasliqqa qaror qo'yg'an edim, —dedi, — booo xudo, o'g'lim, uch yildan beri oy sayin Marg'ilong'a qatnab zerikmadingmi,endi ular ham kelsin axir, deb yo'ldan to'xtatqan edim.* 3. *Axir manim ham o'zimga yarasha obro'm bor.* 4. — *Axir so'zingizning sirasi shunga keladi-da...*

BOG'LOVCHI VAZIFASIDA KELUVCHI YUKLAMALAR

Ayrim bog'lovchilar o'zining vazifasidan tashqari yuklama vazifasida kelsa, yuklamalar ham bundan mustasno emas. Quyida yuklamalarning bog'lovchi vazifasida kelishini ko'rib chiqamiz:

Ham yuklamasi. Asli bu yuklama o'zi kuchaytirib yoki ta'kidlab ko'rsatadigan so'zlardan ko'pincha keyin keladi. 1. Bu yuklama ta'kid ma'nosini bildiradi. Bunday paytda u: a) mustaqil so'zlarni (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish) ni ta'kidlab ko'rsatadi: 1. *Shundayqilib ikki yoshning birinchi ham sof muhabbatlari qovishish bilan natijalandi.* 2. *Biroq ularning urug'i bizning Marg'ilong'a ham sochilg'an ekan.* 3. *Chunki majlis o'rnini aytsa pochchasi bilan jiyni Rahmatning hamqo'lg'a tushishlari aniq va buning bilan ul o'z oyog'iga bolta qo'ygan bo'lar edi.* 4. — *Agar aytmasang o'shamuttahamlar tiqiladirg'an chuqurg'a sen ham tashlanasan.* b) gapda ko'makchilik birikmani ta'kidlab keladi: 1. *Uning Qo'qondan qaytishi ikkala xotini uchun ham ulug' bir falokat bo'ldi.* 2. *Endigina «Bekni uylantirdim, suyganiga qo'shib quvontirdim», deb bu uylantirishning husni va qubhini tuzukrakkina o'ylay olmag'an Hasanali uchun ham bu voqi'a kichkina gap, ozg'ina qayg'u emas edi.* 3. *Garchi o'zining najoti hali qorong'u ersa-da, qo'rboshini bir sinab ko'rish uchun hamma kuchini ikki ko'ziga yig'dida, unga qaradi.* 4. — *Shundog'... — dedi va bir oz o'ylanib qolgandan keyin: — yetmish kunlik qamalbilan xazinamiz juda g'ariblandi, hatto shu keyingi kunlarda sipohlarning ozig'i uchunham qiynalib qoldiq.* 5. *Mana shuning uchun ham ul bezraygan edi.* 6. *O'zbek oyimaralashqan to'ylik xotinlarning ko'ngillaridagi orzu havaslari ham erlari tomonidankamchiliksiz bajarilar, chunki «O'zbek oyim shundog' buyurdilar» degan so'z erlar uchunham farz kabi eshitilib, O'zbek oyimning aytkanicha hozirlik ko'rila boshlanar edi.* 7. *O'zingizning shuxatongiz uchun ham bu gapni qabul qilmoqqa majbursiz.* 8. *Shuning uchun ham ma'nolik she'rlardan boshiniko'tarmaydir-da, go'yoki aytarsiz kitobka mixlangan...*

2. To'siqsizlik ma'nosini bildiradi. Bunda u gapda shart maylidagi fe'llar va o'rin kelishigidagi sifatdoshlardan keyin keladi: 1. *O'zbek oyim marg'ilonliqning domlasini kuchlik ekanida shubha qilmasa ham, ammobir ishka juda hayron edi: juhudning qilg'an jodusini — juhud, musulmon domlanikini — musulmon daf' qila olur edi; nega bular asar qilmaydi sira?* 2. *O'zbek oyim yengilayozgan bo'lsa ham, ayniqsa, Hasanalidan til qisib qolg'usi kelmasedi.* 3. *Bu musohaba ko'rinishda O'zbek oyimg'a uncha o'zgarish bermagandek sezilsa ham, lekin ruhan uni ancha bo'shashdirg'an edi.* 4. *Barakatbersinki, esi yarim bo'lsa ham, To'ybeka umrida birinchi ish qildi: sovuq suv keltirib Kumushning manglay va ko'ksiga sepkan edi, seskanib o'ziga keldi.* 5. *Ammo «biravlar» to'g'risida nima bo'lganda ham bir gap eshitmak havasi tug'ilg'an edi.* 6. *Lekin kishi sig'aturg'an bo'lib teshilganda ham meni ayblay olmas edilar, zeroki, uyimiz ostini teshkan muttahamlar, albatta, yaxshi niyat bilan teshmagan bo'lib, molimiz va jonimiz qasdida ekanliklari ma'lum edi.* 7. *O'ylashimcha, hech kim bilmaganda ham, sirni o'lgan Sodiqning onasi bilsa kerak edi.* 8. *Yo'qsa, meni ko'rar edingiz, ko'rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko'raredilar, to'yar edilar...*

3. Tasdiq bildiruvchi haqiqatdan, chindan, rostdan kabi so'zlar bilan kelib, shu so'zlardan anglashilgan tasdiq ma'nosini yana kuchaytiradi: 1. *Haqiqatan ham hojining ustalig'i O'zbek oyimdek dumbul tabi'atlik xotinlarni gangitarlik edi.* 2. *Otasining valine'mati bo'lg'an bir bekning zulmini iqrar etish haqiqatan ham taajjubkaloyiq edi.* 3. *Chindan ham ul yonida ikki yangasi bilan kelgan edi.* 4. — *Biz bu daqiqada sizning fikringizcha go'yo bir ig'vogar, go'yo bir isyonchi bo'lib tanilib turibmiz, — dedi bek, — chindan ham shundog' kishilarmizmi, yo'qmi, buni, albatta, sizning tekshirishlaringiz, haqiqatlaringiz ko'rsatar.*

Yuqorida biz ham yuklamasining qanday ma'nolarda kelishini aytib o'tdik. U yuklamalik vazifasidan tashqari biriktiruv bog'lovchilarining o'rnida ham qo'llaniladi. Bu yuklama bog'lovchi vazifada kelganda, va bog'lovchisi singari uyushgan bo'laklarni bog'laydi, u bo'laklar orasidagi tenglik munosabatini ifodalaydi: 1. *Men sizning qilichingiz ostida o'limdan qo'rqib yoki sizga xushomad*

uchun so‘zlamay, hukumat kishilarimiz orasidatushunadirg‘an bir odam bo‘lg‘anlig‘ingiz vajidan otamning ham, o‘zimning qanday fikr vamaslak kishisi ekanligimizni aytib o‘tmakchi bo‘laman: biz na qipchoqlarg‘a tarafdor birkishi va na shaharlik og‘aynilarg‘a.

Bu bog‘lovchi ham ish – harakatning bir vaqtda (*gapirdi ham kuldi kabi*) yoki ketma – ket bo‘lganini ko‘rsatadi (*keldi ham ketdi*).

Ham uyushgan bo‘laklarning oldida yoki oxirida takrorlanib kelishi mumkin. U faqat uyushgan bo‘laklarning oldida kelgandagina bog‘lovchi sanaladi: 1. Otabekning ko‘nglini o‘shago‘zal marg‘ilonliqdan sovitish yo‘lida ham undan ko‘hlik, ham undan suluv qiz topishko‘yiga tushdi. 2. : «Ham sovg‘ang kerak emas, ham o‘zing » degan javob bilan yuziga ham urarlar. 3. — Negaki, ikki o‘rtada sihirchi hindi ham yo‘q, sihir qildirg‘uchi ham marg‘ilonliq , ham Otabek sihirlangan emas... 4. Ko‘ynaklar ichida o‘ziga yarashmaydirg‘ani yo‘q: oq olma uchun hambargi, ham guli bir... 5. Ma‘lumingiz Toshkanddan uylanganimdan so‘ng yolg‘iz boshimg‘a hamToshkanddan, ham Marg‘ilondan ikki xotin ushlab turish og‘irliq qila boshladi. 6. . Homidqo‘lini olib «ham so‘z bir, ham xudo bir» javobini berdi. 7. — Kar emasman, lekin sizning bu taklifingiz oldida ham kar, ham ko‘rman.

Ham uyushiq bo‘laklaridan keyin takrorlanib kelganda uyushiq bo‘laklarni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llanadi: 1. Uxlamay kutibo‘lturdi. Ammo ul tungi soat o‘n bir bo‘lsa ham kelmas, o‘n ikkida ham daraksiz edi. 2. O‘z-o‘ziga «haqiqatan men uyatsiz», deb qo‘yar va shuning ila hammautilgan-kuzatilgan gaplar, besh kunlik yo‘l mashaqqatlari havog‘a ketar, hatto xayoldaemas, haqiqatda o‘ylab qo‘yg‘an qayin otasi bilan xotinini shari‘atka chaqirish fikri hamunutilar va yo‘qolur, «hiylagarning yuzini qozixonada ko‘raymi, o‘zi ham qursin, yuziham!» der edi-da, otini to‘g‘ri usta Alimnikiga qarab solar edi. 3. — Bu bir it! — dedi usta Farfi, tomdagi luqmani o‘zi ham yeyolmaydir, boshqag‘a hamyedirmaydir, nax itning o‘zi! 4. — Men topdim, xax shayton! — dedi Karima otin, — qizil gulning ham o‘z oldig‘a, oqgulning ham o‘z oldig‘a isi bor, demakchi!

Takrorlanib kelgan *ham* bog'lovchisi fonetik o'zgarishga uchrashi, ya'ni *h* tovushi *yamga* o'tishi yoki tushib qolishi mumkin. Bunday choqda u o'zidan oldingi so'zga qo'shib talaffuz etiladi: *Kolxoz yurtniyam, xalqniyam boqdi, o'ziniyam boqdi* kabi.

-*u(-yu)* yuklamasi aniqlik maylidagi fe'llardan so'ng kelib, ish – harakatning bajarilishidagi tezlik va davomiylik ma'nosini bildiradi: *Keldi-yu ketdi* (tezlik). *O'yladi-yu qoldi* (davom).

Ba'zan va bog'lovchisi o'rnida –*u(-yu)* yuklamasi ham uyushgan bo'laklar, ayrim gaplar orasida kelib, biriktiruvchi bog'lovchi vazifasida ishlatiladi. Bu holda ular orasidagi bog'lanish juda mustahkam bo'ladi. 1. *Shunda qodir Xudoning qahri kelibdi-yu, ikkovining ham ko'zini ko'r qilib, qushga aylantirib qo'yibdi.* 2. *Kipriklarini og'ir-og'ir pirpiratib onamga uzoq tikildi-yu, ovozi pasaydi.* 3. *Oyim yarq etib qaradi-yu, labini tishlab bosh chayqadi.* 4. *Urushdan kimga foyda-yu, kimga ziyon, deyishibdi.* 5. *Erta bahorda qiyg'os gullardi-yu, hech meva tugmasdi.* 6. *Shunda qor gupillab yog'ib turgan mudhish kecha, onamning qip-qizil go'shtga aylanib ketgan oyoqlari ko'z o'ngimga keladi-yu, indamay chiqib ketaman. (O'. Hoshimov).* 7. *Bahorda hujraning tomiga chiqib varrak uchirayotgan ekan, varrak havolagan sayin qiziqib ketib ipni torta-torta tisarilib boribdi-yu, tomdan chalqanchasiga yiqilib tushibdi. (O'. Hoshimov).*

-*da* yuklamasi shart maylidagi fe'llardan keyin kelib, to'siqsizlik ma'nosini anglatishi mumkin. Bunda u *ham* yuklamasi bilan sinonim bo'ladi: 1. *Endi «Kirsinlar» jumlasini eshitgach, yuragi ortiqcha shopirinib ketdi, uning istiqbolig'a turishni va bo'ynig'a osilib yig'lashnitilasa-da, qarshisidagi «olabo'jilar» bunga mone edilar.* 2. *Garchi o'zining najoti hali qorong'u ersa-da, qo'rboshini bir sinab ko'rish uchun hamma kuchini ikki ko'ziga yig'dida, unga qaradi.* 3. *Negaki, choparning Toshkanddan bo'lishi bu hukmda bir oz shoshmasliqni istar, chopar vositasibilan ham bu hukm ehtimol haqlik bir hukm bo'lib chiqar va Musulmonqul ham loaqal o'zumrida bir martaba bo'lsa-da, o'rinliq qon to'kkan bo'lar edi.* 4. *Yo'q, ulsezsa-da, bilsa-da, go'yo oyog', qo'li*

bog'lanib, bo'g'izlanishga hozirlangan bir qo'y kabiqayralayotgan pichoqqa butunlay parvosiz, qo'rquvsiz tomosha qilar edi. 5. Uning har bir ra'yiga Normuhammad qushbegi qonunanmajbur bo'lmasa-da, ammo ma'nan bir majburiyat his etar edi: o'rinsizga kishio'ldirishlar, vaqtsiz ham o'rinsiz soliq solishlar, behuda o'rda usrofotlari, bo'lmag'urtaqiqlar va ortiqcha diniy takallufotlar bir muncha ebka olindilar. 6. Ammo uning istiqbolida birbo'shliqdan o'zga hech gap uchrata olmasa-da, yana ulug' bir ma'no ko'rgandek bo'laredi. 7. O'z istiqbolini ham shu ustaniki qabilidan ko'rmakchi bo'lsa-da, buning uchun birnarsa kamdek, yetishmag'andek kelar, ikkinchi usta Alim bo'lish uchun bir «o'ldi»so'zigina oradan topolmas edi. 8. Shuninguchun Otabekning qayg'ulik hollari, uyqusiz mutolaada o'tkan tunlari va, umuman, undagio'zgarishlar bu to'g'rida Hasanalini o'ylatsa-da, sababini so'rashg'a botirlig'i yetmas vazo'rashni ham foydasiz deb bilar edi.

Shuningdek, -da yuklamasi kelishik qo'shimchalaridan keyin kelganda ham ham yuklamasiga mos keladi: 1. *Arkoni davlat yig'ilib, Xudoyor taxtiga mingan, Musulmonqul xon bo'lmasa ham xonliqdan-da yuqori bir kuchka molik bo'lg'an siyosat kursisiga o'ltirgan edi. 2. Otning boshini burishni-da, burmasni-da bilmay bir oz o'ylab to'xtadi. 3. — Qattig' uzr bo'lmag'anda ichmagan ham ma'qul,— dedi va ikkinchi piyolanito'ldirar ekan, davom qildi,— lekin bu narsa bir tomondan kishining salomatligiga foydabersa, ikkinchi jihatdan tiriklikning qayg'u va alamlarini-da unutdirib turar ekan. 4. Shu daqiqadan boshlab kechiradigan mas'ud kunlarinitasavvurdan ojiz va Zaynab to'g'risida o'ylab ham qaramas, boshqa gap esiga-da kelmasedi.*

-da yuklamasining bog'lovchilik vazifasiga to'xtaladigan bo'lsak, ketma – ket bo'lgan ish – harakatni bir – biriga bog'lovchi va o'rnida -da yuklamasi ham qo'llanadi. Bunda bir ish – harakatdan ikkinchisiga tezlikda o'tganlik ma'nosi ifodalanadi: 1. *Otabek bu gapni onglamadi shekillik, Hasanalining yuziga ko'tarilib qaradi-da, yanako'zini bir nuqtag'a tikib qoldi. 2. Qorong'ida turtinibhujra eshigiga keldi-da, avaylab g'ijirlatmay eshikni ochdi va sekingina tashqarig'a boshchiqarib saroyini kuzatdi. 3. O'rni ustiga choponini yopdi-da,*

ko'rpasi ichiga kirib o'lturdi va «chindan oshiqmi?» degan savolni ko'nglidan kechirdi. 4. Ayvonning bir chetidan mehmonxonada gilam to'shab uringan To'ybekaga qarang'an bo'ldi-da, ayvonning o'rta ustuniga kelib suyandi. 5. Ayvon ustuniga suyang'ach, qora qiyig' qoshlarini chimirib ko'cha yo'lak tomong'aqaradi, bir oz qarab turdi-da, ayvondan yerga tushib yo'lak tomong'a, ariq bo'yig'a ketdi. 6. Suv bir do'konning ostidan chiqib, bu havlida uch-to'rt quloqchasi ochiq havodaoqar va ko'priktom ostig'a ketar edi. Kumushbibi ariq bo'yidan bir o'rinni ko'zladi-da, sakrab narigi yuziga o'tdi va cho'nqaydi. 7. Tag'i umi-boshqami— xudo bilsin, shatir-shutir qildi-da, chiqib ketdi. 8. Kechlik oshni o'tkazgach, Hasanali o'z hujrasidan kiyinib chiqdi-da Otabek yonig'akirdi. 9. Hasanali Ziyo shohichining tashqarisig'a kelib kirdi-da, mehmonxona darichasigaqaradi. 10. Shari'at ishiga sharm yo'q, deyirlar o'rtoq, agarchi siz bilan menga bir muncha og'irroq bo'lsa ham yana so'zlab o'tishga hojat bor: kunlardan bir kun taqdir shamoli yuradir-da bir kimsaning iffat pardasi ostida o'lturgan qizining yuzidagi niqobini ko'tarib ikkinchi tomondan bizning Otabekni shu afifagar o'baro' qiladir.

-mi yuklamasi: a) so'roq bildiradi: 1. Oftob oyim endi ikkinchi turlik yo'l bilan ketdi: — Uylanganmi, yo'qmi? 2. — Nima majburiyatda bizga kuyav bo'lmoqchi, Toshkanddan qiz topilmag'anmi? 3. Darvoqi' Otabekmenga o'g'ulliq qilmasmi, xotini menga qiz bo'lmasmi, ularning bolalari meni «bobo» deb ketimdan yugurmasmikinlar? 4. Oftob oyimlarning kuyavlari kim, qaysiqizlarini erga beradirlar, ularning Kumushdan ham boshqa qizlari bormi? 5. — Kumushbibi kuyavni yoqtiradirmi, yo'qmi? Bu to'g'rida uning fikrini bilish kerakemasmi? 6. — Sen aqlsiz o'lgur, Kumushni uyaltirg'ansan! Tinch yursang seni birav bir nima qiladimi? 7. Xotin Oftob oyimning bu gapidan hayron bo'ldi va o'ylab so'radi: — Nimabalo, kuyaving ko'rksizmi? 8. Domlaning: Siz kim Kumushbibi Mirzakarim qizi, o'zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o'g'ligabag'ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo'ldosh o'g'liga topshirdingizmi? 9. — Nima va qaysi to'g'rilar so'zlashdilar, Otabek

qipchoqlarg'a qarshi so'zlamadimi? 10. Bularning yonig'a bizgama'lum kishi kelib to'xtadi va ulardan so'radi: — Bek uydamlar?

b) taajjub, hayrat bildiradi (bunday choqda so'roq ma'nosi ham anglashilib turadi) : 1. *Shahar ichidan o'rda darbozasig'a qarab kelmakda bo'lg'an bir necha ot oyog'larinieshitib, qorovullardan bittasi — «tuyoq tovshimi?» deb, ikkinchisiga savol tashlab qo'ydi. 2. . Shundankeyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan,hayajonlang'an bir tovush bilan so'radi: — Siz o'shami?*

Bularga qarshi O. Bozorov o'zbek tilidagi –mi so'roq yuklamasining qo'shimcha ma'no ifoda etmasligini qayd qiladi. A.N.Kononov esa zamonaviy o'zbek adabiy tili grammatikasiga bag'ishlangan asarida –mibirligining , asosan, fe'l shakllariga qo'shilib keluvchi so'roq yuklamasi bo'lib kelishini ta'kidlaydi va shunday umumiy ta'rif beradi: “ –mi – so'zlar, asosan, fe'l shakllari tarkibiga kiruvchi so'roq yuklamasi bo'lib, bu qisman, uning (so'zlarga) birikib ketish xususiyati bilan izohlanadi”. Nilufar Abdullayeva ham o'zining maqolasida –mi yuklamasini o'zbek va turk tillarida qiyoslaydi. Ba'zida o'zbek tilida ham noodatiy jumla qurilishini - so'zlar o'rni almashinib kelishini kuzatish mumkin. Bunda –mi yuklamasi gap boshida keladi. Bu hol, ko'pincha, og'zaki nutqqa, she'riyatga xosligini ta'kidlab o'tadi va bunga misol keltiradi: - *Senmi hali menga qo'l ko'taradigan!? – Oppoqqqina, sarishtaliginami ko'rgan qizing?* Shubilan birgalikda mumtoz she'riyatda –mi yuklamasi –mu shaklida iste'molda bo'lganligini ham aytib o'tadi:

Namangan eliding keldim, mani yo'qlar kishim bormu?

R.R. Sayfullayeva–mi so'roq taajjub yuklamasi gapda bog'lovchi vazifasini ham bajarishini ta'kidlab o'tadi: 1. — *Mana ko'rdingizmi,otamning qadru qiymatini. 2. To'shagi ustiga o'lturib, oq soqolinio'ng qo'li bilan tutamlab o'ylar edi: savdo to'g'risida biror xato qildimi, Ziyoshohichinikida taomdan tuzukroq to'tinmadi, biror og'rig'i bormikan... 3. Eshikni itarishka borg'an qo'lini qoldirib «balki og'riqemasdir» deb to'xtaldi. Yana kiraymi, yo'qmi, deb ikkilanib*

turgʻandan keyin yurib, oʻzining hujrasiga keldi. 4. Bir narsa toʻgʻrisida oʻylarmidi yoki bosh ogʻrigʻisi kuchlikmidi, har holda namozshom gul kabi yopiq edi. 5. Tagʻi umi-boshqami— xudo bilsin, shatir-shutir qildi-da, chiqib ketdi. 6. Yoki bu harakatim adolatdan emasmi, fuqaro! 7. — Soʻzlaring toʻgʻri, xotin, — dedi oʻylab qutidor, — lekin taqdir bitkandanmi, nimadan boʻlsa ham bu yigitka qarshi koʻnglim jizillab turadir. 8. Mehmon kutibcharchagʻanidanmi, nimadan boʻlsa ham juda kalavlagan, baʻzan qiladigʻan ishidan ham yanglishib ketkani, masalan, uyga kirmakchi boʻlib tavanho-naga kirib qolgʻani koʻriladir.

XULOSA

Biz yuqorida kurs ishimiz orqali ergashtiruvchi bog'lochi va yuklamalarni tahlil davomida ko'rib chiqdik. Bizga shu narsa ma'lum bo'ldiki, ayrim so'z va qo'shimchalarni ko'pchilik olimlar bog'lovchiga kirgizsa(*go'yo, go'yoki, na... na, ham va b.*), ba'zi olimlar yuklamalik xususiyatiga ega deb qaraydi va boshqa olimlar esa ham yuklama ham bog'lovchi vazfasini bajarishini ta'kidlab o'tadilar. Bu haqida hali bir to'xtamga kelingan emasligini, bu muommo dolzarbligicha qolayotganligini bilib oldik. Masalan, R.R. Sayfullayevaham biriktiruv bog'lovchisi ta'kid qo'shimcha ma'nosiga ega desa, Sh. Shoabdurahmonovham yuklamasi bog'lovchi vazifasida kelganda, va bog'lovchisi singari uyushgan bo'laklarni bog'lashini va u bo'laklar o'rtasida tenglik munosabatini ifodalashini aytadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu olimlarning fikrlari deyarli bir xil, lekin bir-biridan farqli tomonihamnibittasi bog'lovchi, bittasi yuklama deydi. Bunday olib qaraganda ikkovining ham fikrlari to'g'ri, ammo bu yordamchi yuklama vazifasida ko'proq keladi. Shuning uchun ham uni yuklamaga kirgizgan ma'qulroqdir.

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek tilida ergashtiruvchi bog'lovchi va yuklamalarning ma'no va xususiyatlari haqida turlicha fikrlar bildirish mumkin. Ularni to'g'ri tahlil qilish, ular bilan bog'liq masalalarni ilmiy hal etish bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan bosh vazifalardan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek tili grammatikasi. Morfologiya I tom, T., - "Fan" nashiryoti, 1975.
2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H, Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q, Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2009. – 416 b.
3. A.G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. –T.: "O'qituvchi", 1987.
4. N.Abdullayeva. O'zbek va turk tillaridagi *–mi* yuklamasining qiyosiy talqini. O'zbek tili va adabiyoti, 2014 – yil, 5 – son.
5. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Donyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "O'qituvchi", 1980.